



*2023: Special Issue "Problems and Prospects for the Development of Accounting, Economic Analysis and Audit Based on International Standards in the Conditions of Economy Digitalization"*

## IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

**Egamberdiyeva Salima Rayimovna**

QarMII dotsenti

**Rahmonova Tillaoy Malik qizi**

QarMII magistranti

**Raxmatov Jonibek Ismoil o'g'li**

QMII talabasi

### Annotatsiya

Maqolada halqaro standartlarga o'tishda buxgalteriya hisobi obyektlari bo'lgan aktivlarning mazmunan hamda tarkiban o'zgarishi va uning natijasida ularni tasniflanish belgilaridagi va hisobga olishdagi munozarali jihatlar ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ehtiyoj, kapital, aktiv, mehnat qurollari va mehnat buyumlari, ishlab chiqarish vositalari, mashina va jihozlar hamda xom-ashyo material.

### Kirish

Iqtisodchi olimlar o'rtasida munozaraga sabab bo'layotgan masalalardan biri - kapitalni iqtisodiy kategoriya emas, balki buxgalteriya hisobi kategoriyasi sifatida e'tirof etish lozimligidir. Hozirgi bозор иқтисодиётига доир кўпчилик адабиётларда эса ишлаб чиқаришнинг тўрт омили: ер, ишчи кучи, капитал ва тадбиркорлик қобилияти тан олинади.[1]

Ишлаб чиқариш омилларида бири бўлган капитал иқтисодчи олимлар томонидан атрофлича тадқиқ қилинган. Мумтоз иқтисодчи Давид Рикардонинг фикрича: «Капитал бу мамлакат бойлигининг ишлаб чиқаришда иштирок этадиган қисми бўлиб, машина ва жиҳозлар ҳамда хом ашё материалларидан иборатдир».[2].

### Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Томас Мальтуснинг фикрича, «капитал - мамлакат захирасининг шундай қисmidirki, undan moddiy ne'mat ishlab chiqarish va uni taqsimlash maqsadida foydalaniladi».[3]

Dj.Klark, L.Valras va I.Fisher «kapital - daromad, foyda va foiz keltiruvchi qiymat», deb

qaraydilar.

Ammo K.Makkonnell, S.Bryu[4] , S.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenzilar[5] kapitalni barcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'llaniladigan moddiy vositalardan, ya'ni mashinalar, asbob-uskunalar, inshootlar, zavod-fabrikalar, omborlar, transport vositalari kabilardan iborat, deb tovar va pulni bunga kiritmaydilar.

### 1-jadval

#### Kapitalning aylanma va asosiy kapital sifatida farqlanish belgilari [6]

№	Aylanma	Asosiy
1	Kapital qiymatining aylanish usuliga ko'ra	
	Bir doiraviy aylanish	Bir necha doiraviy aylanish
2	Kapital qiymatining ishlab chiqarishdan olinadigan daromadga bog'liqlik xususiyatiga ko'ra	
	Daromadning asosini tashkil etadi	Daromadning bir kismini tashkil etadi
3	Kapitalning ishlab chiqarish jarayonida harakat qilish xususiyatlariga ko'ra	
	Natural buyum shaklini saqlab qolmay, mahsulot tarkibiga to'liq kiradi	Natural buyum shaklini saqlab qolib, mahsulot tarkibiga kirmaydi
4	Kapital qiymatining qayta tiklanish usuliga ko'ra	
	Ashyoviy buyum sifatida bir doiraviy aylanishdan so'ng qayta tiklanadi	Bir necha doiraviy aylanishdan so'ng amortizatsiyalanib, pul shaklidan asosiy kapital shakliga aylanadi

Ko'rinib turibdiki, ushbu iqtisodchilar kapitalistik iqtisodiy tuzumning ijtimoiy mohiyatini ochish uchun masalaga bir tomonlama yondashib, ishlab chiqarish omillarining qiymatiga e'tiborni qaratgan. Mamlakatimiz olimlaridan SH.Shodmonov, R.Alimov, T.Jo'rayevlar Farb olimlarining ayrimlari tomonidan kapitalni bir tomonlama, ya'ni uning qiymat tarafini e'tiborga olganliklari, boshqalari esa iqtisodiy tushunchalarning tarixiyligini e'tibordan chetda koldirib, uning moddiy obekti, narsa va hodisalarning ashoviy tomonini ko'rsatganliklari va shuning uchun kapital doimiy, o'zgarmas tushuncha, deb e'tirof etganliklarini ta'kidlab, kapital mazmunini quyidagicha bayon qilishgan: «Biz bu ikki xil tushunchani bir tanganing ikki tomoni, bir tushunchaning, ya'ni kapital tushunchasining ikki tomoni: uning bir tomoni moddiy va ashoviy kurinishi, ik-kinchi tomoni esa uning qiymat ko'rinishi ekanligini e'tiborga olamiz va uni bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital deb ishlatamiz».[7]

Hozirgi kunda iqtisodchi olimlar o'rtasida munozaraga sabab bo'layotgan masalalardan biri - kapitalni iqtisodiy kategoriya emas, balki buxgalteriya hisobi kategoriyasi sifatida e'tirof etish lozimligidir. Bizningcha, bunday munozaraga o'rin bermaslik lozim. Chunki kapital, avvalambor, iqtisodiy kategoriya sifatida barcha iqtisodiy fanlarning asosi bo'lib hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi ham iqtisodiy fan sifatida iqtisodiy tushuncha va qonuniyatlarni o'z maqsadi va vazifalari doirasida tadqiq etadi. Kapital tushunchasi buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan ham o'rganilishi tabiiydir.

### Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan mavzuga oid ilmiy va nazariy yondashuvlar urganilib mushohada qilingan. Tadqiqotda belgilangan maqsadga erishish uchun yo'nalish tanlab olingan. Empirik tadqiqotning kuzatish, jamlash, guruhlash va ma'lumotlar manbalari o'rtasidagi aloqalarni aniqlash usullaridan va nazariy tadqiqotning analiz va sintez usullaridan keng foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar.**

Buxgalteriya hisobi darsligida kapitalni ta'sischilar tomonidan qo'yilgan ulushlar majmuasi va korxonada tomonidan jamg'arilgan foyda deb karalgan.[8].

Amerikalik olimlarning fikricha, kapital - mulkdorning ixtiyoridagi moddiy va nomoddiy shakldagi mablag'lar va pul mablag'lari kabi iqtisodiy resurslardir[9]

Ushbu mulohazalar kapitalning iqtisodiy kategoriya ekanligini to'liq yoritmaydi. Balki bu ta'riflar kapital mohiyatini buxgalteriya hisobi kategoriyasi sifatida ochib beradi, xolos.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyot nazariyasida kapital tushunchasiga berilgan ta'riflar ko'proq nazariy, umumlashgan holda bo'lib, uning o'z-o'zidan ko'payish xususiyatini aks ettiradi. Buxgalteriya hisobidagi ta'riflarda esa uning aniq namoyon bo'lish shakllariga, buyumlashganligiga ko'proq urg'u beriladi. Bunday yondashish hech ham iqtisodiyot nazariyasiga zid emas. Buxgalteriya hisobida qiymatning qayerda ko'payishi va qanday ko'payish jarayoni, uning manbalari aniq bandlarda ko'rinib turadi. Demak, buxgalteriya hisobida kapitalga iqtisodiyot nazariyasida berilgan ta'rif yanada puxta tizimlashgan shaklda oydinlashadi.

Bizning fikrimizcha, buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan asosiy kapital avvalo iqtisodiy kategoriya bo'lib, tayyorlash, ishlab chikarish va sotish hamda noishlab chiqarish sohasida ishtirok etayotgan va kelgusida iqtisodiy naf keltiradigan aktivlardir. Asosiy va aylanma kapitalga ajratish mezonini negizida ularning ma'lum bir qiymatga bog'liqligi emas, balki iqtisodiy naf keltira olishi yotishi kerak.

Xo'jalik yuritishning rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, asosan ishlab chiqarish vositalariga asosiy kapital sifatida gavalanganligini va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan olinadigan daromadlar sababchisi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jamiyatning rivojlanish bosqichida iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi ishlab chiqarish omillaridan bo'lgan kapitalning tarkibiy qismi bo'lgan asosiy kapital qatorida nomoddiy aktivlar, moliyaviy qo'yilmalar kabi aktivlar vujudga kela boshladi. Ushbu aktivlarning xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatidagi ishtiroki va daromad olishdagi ulushlari asosiy kapitalga aynan o'xshamasada, lekin korxonada faoliyatida bir doiraviy aylanishdan ko'ra ko'proq muddatda ishtirok etishlari va daromad olishga sababchi bo'lishlari asosiy kapitalga nisbatan o'xshashlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham asosiy kapitaldan farqlanuvchi aktivlarning vujudga kelishi endilikda buxgalteriya hisobida asosiy vositalar sifatida tan olingan va aksariyat korxonalarining buxgalteriya balansida faqatgina asosiy vositalarning aks ettirilishiga barham berildi. Asosiy vositalar bilan bir qatorda nomoddiy aktivlar, moliyaviy va kapital qo'yilmalar, kechiktirilgan xarajatlar va debitorlik karzlarini ham aks ettirish zaruriyati kelib chiqdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ishtirok etadigan resurslar buxgalteriya hisobi amaliyotida aktivlar deb e'tirof etilib, ular shartli ravishda uzoq muddatli (asosiy kapital) va joriy aktivlar (aylanma kapital) kabi guruhlariga ajratiladi. Bunday guruhlariga ajratishning asosini «Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun» tashkil qiladi. Ushbu qonun kapital hisobining huquqiy konsepsiyasidir.

Aktivlarning uzoq muddatli va joriy aktivlar guruhlariga ajratilishi, ularning bevosita xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatidan olinadigan daromadlar bilan bevosita bog'liqligi kapital hisobining iqtisodiy konsepsiyasini tashkil etadi.

Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi obyekt sifatidagi konsepsiyasini ishlab chikishda, avvalambor, ularning iqtisodiy mohiyati asos kilib olinishi lozim.

Uzoq muddatli aktivlarni tan olish va hisobda aks ettirish keng ma'nodagi aktivlarning mohiyatini tadqiq qilish muammolari bilan bevosita bog'liqdir. Mamlakatimiz buxgalteriya hisobi amaliyotida

aktivlar korxonaga tegishli xo'jalik mablag'lari deb tan olingan va e'tirof etilgan. Ammo bu e'tirof asosan asosiy kapitalga taalluqli bo'lgan. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitidagi davrda uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kiradigan buxgalteriya hisobining boshqa obyektlari ham paydo bo'lganki, ularning iqtisodiy mohiyati albatta asosiy kapitalning mohiyatidan farqlanadi. Jumladan, nomoddiy aktivlar, moliyaviy qo'yilmalar, uzoq muddatli debitor qarz va muddati uzaytirilgan xarajatlar ham kiradi

2-jadval.

### Uzoq muddatli aktivlarning tasniflanishi va tavsiflanishi[10]

Tasnifi	Tavsifi	Tarkibi
Moddiy aktivlar	korxonada faoliyatida bir yildan ortiq vaqt mobaynida ishtirok etadigan, kelgusida iqtisodiy naf keltira oladigan moddiy mablag'lar	- asosiy vositalar; - uzoq muddatga ijaraga olingan asosiy vositalar; - kapital qo'yilmalar; - o'rnatiladigan jihozlar;
Nomoddiy aktivlar	korxonada faoliyatida bir yildan ortiq vaqt mobaynida ishtirok etadigan, kelgusida iqtisodiy naf keltira oladigan, identifikatsiyalanuvchi, moddiy buyumlashgan shaklga ega bo'lmagan aktivlar	- patent; - savdo markasi; - tovar belgisi; - dasturiy ta'minot; - yerdan foydalanish huquqi; - tashkiliy xarajatlar; - franchayz; - mualliflik huquqi; - gudvill;
Moliyaviy aktivlar	kelgusida foiz (dividend), ulush ko'rinishida daromad olish maqsadida boshqa korxonalar faoliyatiga bir yildan ortiq muddatga qo'yilgan mablag'lar	- qimmatbaxo qog'ozlar; - avlod korxonalariga investitsiyalar; - qaram xo'jaliklarga investitsiyalar; - xorijiy kapitalli korxonalariga investitsiyalar.
Muddati uzaytirilgan debitor qarzlari va kechiktirilgan xarajatlar	bir yildan uzoq muddatga uzaytirilgan debitorlik qarzlari;	- uzoq muddatli ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar; - xodimlarning qarzlari bo'yicha to'lovlar; - vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad solig'i; - kechiktirilgan qarzlari bo'yicha diskontlar.

Uzoq muddatli aktivlar korxonada faoliyatida uzoq muddat ishtirok etadi. Shulardan nomoddiy aktivlar bevosita ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etmasa ham, bilvosita daromad olishga sababchi bo'lib muayyan iqtisodiy naf keltiradi. Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar va investitsion mulk sifatida e'tirof etilayotgan aktivlar esa kelgusida daromad olish maqsadida kapitalni investitsiya qilishning yana bir yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Ushbu jihatlar uzoq muddatli aktivlarni tasniflash va tavsiflash asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan uzoq muddatli aktivlarning tasniflanishi yetarlicha o'rganilmagan.

Fikrlarni umumlashtirib shu narsani aytish mumkinki, uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish va ular to'g'risidagi ma'lumotlar asosida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolini tahlil qilishda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga boshqaruv uchun zarur bo'lgan qarorlarni qabul qilish maqsadida ularni quyidagi tartibda tasniflash va tavsiflash mumkin.

Bizning fikrimizcha, yukorida bayon kilingan fikrlar, bir tomondan, uzoq muddatli aktivlar tarkibini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga uyg'unlashtirishga ko'maklashsa, ikkinchi tomondan, korxonada faoliyatini tahlil qilishda ko'rsatkichlar tizimini tartibga solishni osonlashtiradi..

Uzoq muddatli aktivlar korxonada faoliyatida ishtirok etadigan muhim iqtisodiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida mazkur iqtisodiy kategoriya yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Shuning uchun uning toifalarini aniqlovchi asosiy tavsiflarni har tomonlama ko'rib chiqish zarur.

Ko'pchilik iqtisodchilar uzoq muddatli aktivlarni ishlatish muddati 1 yildan ortiq bo'lgan aktivlar sifatida tasniflaydilar: uzoq muddatli kapital qo'yilmalar, nomoddiy aktivlar, asosiy vositalar, boshqa uzoq muddatli aktivlar. Bunday tarzda tasniflash buxgalteriya hisobi qoidalariga asoslanadi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarida aktivlarni tan olishda milliy standartlardan farq qiladi. Masalan buxgalteriya hisobining milliy standartida asosiy vosita sifatida aks ettiriladigan aktivlar xalqaro standartlarda turli element sifatida aks ettirishi mumkin. Masalan, "Quyidagilar investitsion mulkka misoldir:

(a) odatdagi xo'jalik faoliyati doirasida qisqa muddatda sotish uchun emas, balki uzoq muddat davomida kapitalning qiymati oshishi uchun egalik qilinadigan yer.

(b) kelgusida foydalanilish maqsadi aniqlanmagan egalikdagi yer. (Agarda tadbirkorlik subyektini yerdan mulk-egasi-egallagan mulk sifatida foydalanishini yoki odatdagi xo'jalik faoliyati doirasida qisqa muddatda sotish uchun foydalanishini aniqlamagan bo'lsa, yer kapitalning qiymati oshishi maqsadida saqlanayotgan deb hisoblanadi.)

(v) tadbirkorlik subyektini tomonidan egalik qilinadigan (yoki moliyaviy ijara shartnomasi asosida tadbirkorlik subyektini tomonidan egalik qilinadigan) hamda bir yoki bir necha operativ ijara shartnomalari asosida ijaraga berilgan bino.

(g) band bo'lmagan, ammo bir yoki bir necha operativ ijara bo'yicha ijaraga berishga mo'ljallangan bino." [10]

Sotish uchun muljallangan bo'lsa, o'sha aktiv zaxira hislanadi. Agar ushbu aktiv korxonada asosiy faoliyatida foydalanishi uchun mo'ljallansa, u asosiy vosita sifatida e'tirof etiladi.

### **Xulosa va takliflar.**

Bizningcha aktivlarni tasniflashda xalqaro standartlar mezonlari qo'llanilsa maqsada muvofiq bo'lar edi.

Chunki, aktivlarni to'g'ri tasniflash orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tahlil qilish va ularga baho berish imkoniyati kengayadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Экономика: учебник. / Под ред. Архипова А.И., Большакова А.К. - М.: «Проспект», 2005. -С. 151; Экономическая теория: учебник для студ. вузов. / Камаев В.Д. и др. - М.: «ВЛАДОС», 1999. -С. 154;



2. Пети В., Смит А., Рикардо Д. Антология экономической классики. - М.: «Экономика», 1993. -С. 117.)
3. Маршалл А. Принципы политической экономики. / Пер. с англ. - М.: «Прогресс», 1981. -С. 107.)
4. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика: 17-е изд. - М.: «ИНФРА-М», 2009. -С. 107.)
5. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. - М.: «Дело-ЛТД», 1995. -С. 127.)
6. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
7. Шодмонов Ш. ва бошқалар. Иқтисодиёт назарияси.- : «Молия», 2002. 37-б.)
8. Бухгалтерский учет. / Под ред. Безруких П.С. -М.: «Бухгалтерский учет», 2002. -С. 527.)
9. Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэл Д. Принципы бухгалтерского учета. / Под ред. Я.В.Соколова. -М.: «Финансы и статистика», 1994. -С. 24.
10. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
11. 40-sonli Investitsion mulk nomli standar VXHS. 2011 йилнинг май ойида чоп этилган МХХС 13 га асосан 5-банддаги ҳаққоний қиймат таърифи ўзгартирилди ва 26, 29, 32, 40, 48, 53, 53Б, 78-80 ва 85Б-бандлар ўзгартирилди.
12. Аминов Ф.Б. (2022). НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ КООПЕРАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Экономика и социум, (10-1 (101)), 232-237.
13. Аминов, Ф. Б. (2022). УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.
14. Эгамбердиева, С. Р. (2021). ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАР ЖАРАЁНИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. Экономика и финансы (Узбекистан), (4 (140)), 42-47.
15. Эгамбердиева, С. Р. МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИГА ЎТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ.« ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ: МУАММО, ТАҲЛИЛ ВА РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ» Халқаро илмий-амалий анжуман илмий мақолалар тўплами 20-21 май 2021 й, 460.
16. Эргашева, Н. (2022). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИНГ ТАШКИЛИЙ-УСЛУБИЙ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Innovatsion texnologiyalar, 1(04), 108-111.
17. Эгамбердиевна, А. Ҳ. (2021). ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШДА ҲУҚУҚИЙ ВА ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. Журнал Инновации в Экономике, 4(5).
18. Azimova, H. (2019). RISING THE INCOME OF POPULATION–THE GUARANTY OF LIVING STANDARD. *International Finance and Accounting*, 2019(3), 7.
19. Normamatovich, Kholmurodov O., et al. "Creating a Favorable Environment for Attracting Foreign Investment and Strengthening Its Legal Framework." *JournalNX*, vol. 6, no. 05, 2020, pp. 53-56.
20. Музаффарова, К. З. (2021). МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШ ҲОЛАТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Архив научных исследований*, 1(1).

21. Музафарова, К. З. (2019). Роль иностранных инвестиций в развитии национальной экономики Узбекистана. *Экономика и предпринимательство*, (1), 411-414.
22. БУТУНОВ, Ш. ВЛИЯНИЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И БАНКОВСКИХ ФАКТОРОВ НА УРОВЕНЬ НЕДЕЙСТВУЮЩИХ КРЕДИТОВ: РЕЗУЛЬТАТЫ ПО СТРАНАМ СНГ. *ECONOMICS*, (3), 33-42.
23. NORMAMATOVICH, K. O., EGAMBERDIYEVNA, A. K., & HAKIMOVICH, V. K. Creating a Favorable Environment for Attracting Foreign Investment and Strengthening Its Legal Framework. *JournalNX*, 6(05), 53-56.
24. Турсунов, И., Рахматуллаев, А., & Бердиев, А. (2017). Формирование кластеров как фактор инфраструктурного обеспечения инновационного предпринимательства. *European Journal of Humanities and Social Sciences*, (2), 84-87.
25. Berdiyev, A. H., & Rasulov, K. K. (2022). Prospects for Cluster Activities in the Agricultural Sector: Problems and Solutions. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 99-108.
26. Berdiyev, A. H., & Rasulov, K. K. (2022). Implementing Digital Technologies in Agricultural Sector. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 109-113.
27. Berdiyev, A. H., & Rasulov, K. K. (2022). Issues of Increasing the Investment Potential of the Regions. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 93-98.
28. Khakimovich, V. K. . (2022). Development of Private Capital Financial Statement Audit Methodology in Accordance with International Standards. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 299–303.
29. Туробов, Ш. А., & Фахриддинов, Б. Ф. Ў. (2021). УЙ ХЎЖАЛИКЛАРИ ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ–ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТАРАҚҚИЁТИ ГАРОВИ СИФАТИДА. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (4 (140)), 15-20.
30. Turobov, S. A., & Azamatova, G. I. (2020). REGIONAL CHARACTERISTICS OF HOUSEHOLD ENTREPRENEURSHIP ACTIVITIES IN KASHKADARYA REGION. *Economics and Finance (Uzbekistan)*,(2 (134)).
31. Turobov, S., & Azamatova, G. (2020). The Role Of Households In The Development Of The Digital Economy. *International Finance and Accounting*, 2020(3), 35.
32. Yakubova, S. (2021). Sh. The role of effective implementation of monetary policy in a pandemic condition/Sh. Sh. Yakubova, MD Raimova. *Theoretical & Applied Science*, (12), 104.
33. Усанов, А., & Раҳмонкул, Д. (2019). Ўзбекистон иқтисодий ривожланишида камерал назоратнинг тутган ўрни. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (11), 55-60.
34. Джалилов, Р. (2023). ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ БЎЙИЧА ИМТИЁЗЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Economics and education*, 24(2), 272-278.
35. Рашидов, Р. И., & Муртазаев, Н. Р. (2020). DIRECTIONS OF INNOVATIVE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, 2(7).
36. Alisherovich, T. S., & Iskandarovich, R. R. (2021). The Importance of Household Entrepreneurship in Providing Employment. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 177-182.
37. Аликулов, А. Т. (2019). Ўзбекистонда иқтисодий либераллаштириш ва унинг капитал оқимига таъсири. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (6), 54-58.

38. Tuygunovich, A. A., & Islamovna, G. F. (2022). WHAT FACTORS INFLUENCE THE ACTIVITY OF RETAIL INVESTORS IN THE CAPITAL MARKET. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 373-380.
39. TUYGUNOVICH, A. A., OGLI, S. O. A., & QIZI, K. Z. K. Problems of Improving Stock Market Trading Mechanisms in Uzbekistan. *JournalNX*, 6(07), 330-334.
40. Toxirovna, S. G. (2021). Dehkan Farm-Services To Sustain Food Supply. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 6, 1-5.
41. Samiyeva, G. T. (2021). The Main Tasks Of Farms And Dekhkan Farms In Ensuring Productive Security In Uzbekistan. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*.
42. Маматов, А. А., Жураев, Т. Т., Назарова, Ф. Х., Хуррамов, А. Ф., & Маматов, М. А. (2020). Развитие хлопково-текстильных кластеров в экономике Республики Узбекистан. *Экономика и предпринимательство*, (9), 419-423.
43. Маматов, А. А., & Хуррамов, А. Ф. (2017). Иностраннные инвестиции как фактор экономического роста Республики Узбекистан. *Экономика и предпринимательство*, (10-2), 98-101.
44. Хуррамов, А. (2012). О монографии ИС Абдулаева «ПРОГНОЗИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА». *ва молия Экономика*, 50.
45. Хуррамов, А. Ф. (1993). Арендные отношения и пути их совершенствования в условиях перехода к рыночной экономике (на примере хлопководческих совхозов).